
QANDAY HOLATLARDA SHAXSNI MOBIL-ID TIZIMIDA IDENTIFIKATSIYADAN O'TKAZISH RAD QILINISHI MUMKIN?

Quyidagi holatlarda foydalanuvchini Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o'tkazish rad qilinadi:

So'rovnoma kiritilgan ma'lumotlarning noto'g'ri ekanligi yoki to'liq emasligi Mobil-ID tizimi orqali aniqlanganda;

2023-yil 1-yanvardan boshlab Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o'tkazish uchun belgilangan to'lov to'lanmaganda;

Foydalanuvchini Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o'tkazish ushbu Nizomning 5-bandiga muvofiq bo'lmaganda;

shaxsni tasdiqlovchi hujjatning asli taqdim etilmaganda;

Foydalanuvchining biometrik ma'lumotlari va shaxsini tasdiqlovchi hujjatdagi ma'lumotlari mos kelmaganda;

Biometrik ma'lumotlarni taqdim etishdan bosh tortganda.

Foydalanuvchini Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o'tkazishni boshqa asoslar bo'yicha rad etish taqiqlanadi.

Foydalanuvchi ushbu kamchiliklarni bartaraf etgan holda istalgan vaqtda Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o'tish bo'yicha qayta murojaat qilishi mumkin. Bunda foydalanuvchini Mobil-ID tizimida identifikatsiyalash umumiy tartibda amalga oshiriladi.

Abdumanof Umridinov - So'x tuman adliya bulimi Davlat xizmatlari markazi sho'ba mudiri

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-10-19 16:30:42